

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS XALQARO DASTURINING MUHIM XUSUSIYATALARI

Z.U.Ismoilova, M.S.Abdurahmanova, K.A.Bekbayeva
Guliston shahar 2-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari,
maktab2*gul@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7549730>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tajribalariga tayangan holda PIRLS xalqaro baholash dasturida mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ishtiroki va ularning o'qish savodxonligini baholash haqida fikr yuritilgan.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim- tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Ma'lumki, mustaqillikka erishilgandan so'ng pedagoglar oldiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat talablarini bilish maqsadida ma'lum mazmuni fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bilan boyitishga: ta'lim-tarbiya jarayonida texnologiya ta'limining rolini oshirish va bolalarni tarbiyalash uchun ota-onalarining, o'qituvchilarining ma'suliyatini

oshirishga ajratilgan. Bu o'z navbatida TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi sifatida maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatiga etibor berishda maktab o'qituvchilari oldiga murakkab va mas'uliyatli vazifalar qo'yadi. Ma'lumki bugungi kunda ko'plab ishlarda matematika va vatabiiy fan haqida asosiy tushuncha talab etilmoqda bu esa kelajakda bu fanlarni o'rganishga bo'lgan talab tobora kuchayib boradi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz o'quvchilari xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ham yurtimizda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi.

O'tgan 2021- yilda o'tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etdi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, b

balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. халқаро илмий-амалий анжуман материаллари 26 o'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab

qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta so'zdan

iborat bo'ladi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi: Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi. Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi. O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi. Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan

va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi. Bundan tashqari tadqiqot jarayonida quyidagi so'rovnomalar ham olinad:

O'quvchilar so'rovnomasi;

O'qituvchilar so'rovnomasi;

Ota-onalar so'rovnomasi;

Maktab ma'muriyati so'rovnomasi;

PIRLS tadqiqotida yetakchi bo'lgan davlat o'quvchilarining bilim darajasi yuqori bo'lishining sababi o'rganilganda ularning uyida kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi qayd etilgan. PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "The role of the fun genre in children's spiritual development. " Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40.
2. K. Qosimova va b. Ona tili oqitish metodikasi. – T. : Noshir. 2009.
3. S. Matchonov. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uygunligi. Til va adabiyot talimi. 7- son, 2020.
4. Mullis, Martin and G. Kohiba. PIRLS FRAMEWORK Boston college 2018
5. Qayumova Sh. T. Ta'lim samaradorligini oshirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati. Article. «ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY» International scientific and practical online conference. Andijon 2022
6. <http://www.pirls.org/> PIRLS International Research Program